XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024 - yil 16 - fevral VI-89-61-11-162-K/24 Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tumanida 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish Dasturi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-son qarori hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 5-fevraldagi “Viloyatda 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi haqida”gi VI-64-22-11-0-K/24-son qarori ijrosini ta’minlash shuningdek, tumanda band bo‘lmagan aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha muvofiqlashtirilgan samarali ishlarni amalga oshirishda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlarining mas’uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son qarori hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 5-fevraldagi VI-64-22-11-0-K/24-son qarori Rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i vazifasini vaqtincha bajaruvchisi I.Yakubovning tumanda 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish Dasturi yuzasidan bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Tumanda 2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari *(keyingi o‘rinlarda-maqsadli ko‘rsatkichlar)* tuman ishchi komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilib, tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.Quyidagilar:

2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2024-yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish yo‘nalishida aholini doimiy ishlarda band qilish maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2024-yilda moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hisobiga aholi doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

2024-yilda qishloq xo‘jaligi sohasida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq;

2024-yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari 5-ilovaga muvofiq;

2024-yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning maqsadli ko‘rsatkichlari 6-ilova muvofiq;

yangi moliyaviy xizmat turlarini joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024-yilda 10330 nafar aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari 7-ilova muvofiq;

2024-yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli ko‘rsatkichlari 8-ilova muvofiq tasdiqlansin.

5.Maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan quyidagi hokimning tegishli o‘rinbosarlari va mas’ul idoralar rahbarlari tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ul ekanligi belgilab quyilsin:

tuman hokimining o‘rinbosarlari U.Maxsudov va D.Karabayev tuman hokimligi-investisiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga 2949 ta ish o‘rni yaratishga;

tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Maxsudov, tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i U.Axmadaliyev, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Yakubov) tuman hokimligi-moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga ish o‘rinlarini tashkil etish orqali 5900 ta ish o‘rni yaratishga;

tuman hokimining o‘rinbosari D.Qurbonov tuman hokimligi-qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlari hisobiga ish o‘rinlarini tashkil etish orqali 11739 ta ish o‘rni yaratishga;

tuman hokimining o‘rinbosari X.Ummatov tuman hokimligi-qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish hisobiga ish o‘rinlarini tashkil etish orqali 689 ta ish o‘rni yaratishga;

tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Yakubov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i U.Axmadaliyev tumandagi mas’ul davlat organlari va tashkilotlari tomonidan maqsadli ko‘rsatkichlar o‘z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirishga.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan mas’ul bo‘lim, idora va tashkilotlar hamda tuman hokimligi har oy yakuniga ko‘ra, keyingi oyning birinchi sanasiga qadar soliq organlari ma’lumotlar bazasi bilan solishtirgan holda tegishli ma’lumotlarni umumlashtirish uchun tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga taqdim etib borsin.

6.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Maxsudov va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Yakubov) tumanda mavjud ish o‘rinlari bo‘yicha aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat yarmarkalarining tashkil etish, kasb-hunarga o‘qitish, mehnat migrasiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegrasiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini ko‘rib borsinlar.

Bunda,

mehnat yarmarkalarini samarali tashkil etish, yarmarkalarga aholini ko‘proq qismini qamrab olish orqali ularni ishga joylashtirish;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlaridan maqsadli va samarali foydalanish;

kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini ko‘proq jalb qilish hamda mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida va samarali o‘tishini doimiy nazorat qilib borish;

mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir ishlab chiqish vazifalari yuklansin.

7.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Yakubov), tuman Davlat soliq inpeksiyasi (Axmadaliyev) bilan birgalikda xizmatlar sohasidagi yuridik shaxslar tomonidan yaratilayotgan ish o‘rinlarini soliq organi ma’lumotlari bazasida qayd etib borilishini tashkil etib borsinlar.

Bunda, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi bilan birgalikda xisobot davrida yaratilgan ish o‘rinlari soni tahlili jarayonida tegishli sohalar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlarini xisobotlarga takroran qo‘shish orqali, ko‘rsatkichlarni sun’iy oshirish holatlarini oldini olish choralarini ko‘rib borsin.

8.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Yakubov), tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatov bilan birgalikda 2024-yilning I choragida tashkil etiladigan mehnat yarmarkalari reja-jadvalini ishlab chiqib, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali keng jamoatchilikka ma’lum qilsin.

9.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘lim (Yakubov), viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan nazorat tadbirlarini samarali tashkil etib, aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilib, kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlar belgilab borsinlar.

10. Belgilansinki, har chorak yakuni bilan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Yakubov)ning hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tegishincha xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasida axboroti tinglab borilsin.

11. Xalq deputatlari tuman Kengashi “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tarmoqlar kesimida nazorat qilish bo‘yicha alohida reja ishlab chiqsin hamda doimiy komissiya yig‘ilishlarida doimiy ravishda muhokama qilib borsin.

12. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari o‘z hududlarda maqsadli ko‘rsatkichlarni bajaralishi yuzasidan qat’iy deputatlik nazoratini o‘rnatsin hamda aniqlangan muammolar yuzasidan doimiy ravishda doimiy komissiya yig‘ilishlari hamda Kengash sessiyasiga axborot kiritib borsin.

13. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 11-apreldagi “Uchko‘prik tumanida yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish to‘g‘risida”gi VI-55-72-11-162-K/22-son qarori bilan yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi, shuningdek hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholini bandligini ta’minlash ustidan vakillik organlarini nazoratini yo‘lga qo‘yish sxemasi tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, tuman Ishchi guruhi tarkibiga kiritilgan tashkilotlar hamda tuman hokimligi dasturlar ijrosi bo‘yicha har oyning 2-sanasiga qadar tegishli ma’lumotlarni kiritish, deputatlar tomonidan hududlarda amalga oshiriladigan nazorat tadbirlariga yaqindan ko‘mak berish, zarur shart-sharoitlarni yaratish, deputatlik so‘rovlariga aniq va o‘z vaqtida javob berish bo‘yicha shaxsan javobgarligi ko‘rsatib o‘tilgan.

14. Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatovga tumanda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tuman hokimligi “Yangi Uchko‘prik” gazetasida, shuningdek rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

15. Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta’minlab borishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Maxsudov va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Yakubov) belgilansin.

Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Turanov) va xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov zimmasiga yuklansin.

16. Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiritiladi.

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashining navbatdagi sakson to‘qqizinchi sessiyasi raisi

M. M. Dexqonov

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-89-61-11-162-K/24-son qaroriga
1-ilova

2024-yilda aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlash MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Hudud nomi	JAMI	*shundan:*			*sohalar kesimida:*											
			doimiy	*mavsumiy*	*vaqtinchalik*	**Investisiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga**	*shundan:*		**Xizmat ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga**	*shundan:*		**Qishloq xo‘jaligida**	*shundan:*		**Qurilish sohasida**	*shundan:*	
							Yirik (tarmoq) investisiya loyihalari	*Hududiy investisiya loyihalari*		*doimiy*	*vaqtinchalik*		*doimiy*	*vaqtinchalik*		*doimiy*	*vaqtinchalik*
1	**Uchko‘pik tumani**	**21 277**	7 353	10 609	3 315	**2 949**	*200*	*2 749*	**5 900**	**3 037**	*2 863*	**11 739**	*1 130*	*10 609*	*689*	*237*	*452*

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-89-61-11-162-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024-yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Hudud nomi	JAMI	*jumladan:*							
			Yirik *(tarmoq)*	*shundan:*			**Hududiy investisiya loyihalari**	*shundan:*		
			investisiya loyihalari	*Sanoatda*	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*		*Sanoatda*	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*
1	**Uchko‘pik tumani**	**2949**	**200**	*200*			**2749**	*2008*	*542*	*199*

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-89-61-11-162-K/24-son qaroriga
3-ilova

2024 yilda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarim tashkil etishning MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Hudud nomi	JAMI	shundan:		jumladan:											
			doimiy	vaqtinchalik	Xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarda tashkil etilgan ish o‘rinlari (*yuridik va YATTandagi yangi ish o‘rni)*	jumladan:		shundan:								
						doimiy	vaqtinchalik	Moliyaviy xitzmatlar	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	Transport xizmatlai	Qishloq xo’jaligi xizmatlari sohasida	Mehmonxona va turizm xizmatlari	Ijtimoiy sohalar		Umumiy ovqatlanish
													Ta’lim xizmatlari	Sog’liqni saqlash xizmatlari	
1	Uchko‘pik tumani	5 900	3 037	2863	1 475	848	627	4	10	54	10	4	24	58	78

shundan:		Savdo	shundan:		Maishiy xizmatlar	shundan:		Boshqa xizmatlar ko’rsatish	shundan:		Xizmatlar sohasida o‘zini o‘zi band qilish	jumladan:		Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish
doimiy	vaqtinchalik		doimiy	vaqtinchalik		doimiy	vaqtinchalik		doimiy	vaqtinchalik		doimiy	mavsumiy	
38	40	134	77	77	46	23	23	993	496	497	3196	960	2 236	1 229

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-89-61-11-162-K/24-son qaroriga
4-ilova

2024-yilda qishloq xo'jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz parametrlari
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Hudud nomi	JAMI	*shundan:*		*jumladan:*			Fermer xo‘jaliklarida			Dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish (*E-auksion)*
			doimiy	*mavsumiy*	Agroklasterlarda	*shundan:*			*shundan:*		
						doimiy	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*	
1	**Uchko‘pik tumani**	**11 739**	1 130	10 609	**384**	*87*	*297*	**2 254**	*280*	*1 974*	**913**

shundan:		Takroriy ekin uchun g‘alladan bo‘shagan yer maydonlarini ajratish *(mavsumiy)*	Tomorqada bandlik *(mavsumiy)*	Pillachilik	*shundan:*		Suv xo‘jaligi obyektlari muhofaza zonasi atrofidagi yerlar hisobidan	*shundan:*	
doimiy	*mavsumiy*				*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*
304	**609**	**811**	**1 021**	**6 181**	*448*	*5 733*	**175**	**11**	**164**

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-89-61-11-162-K/24-son qaroriga
5-ilova

2024-yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Hudud nomi	JAMI	*shundan:*		*jumladan:*											
			doimiy	*mavsumiy*	**Uy-joy qurilishi**	*shundan:*		**Sanaot korxonalar qurilishi**	*shundan:*		**Ijtimoiy obyektlar qurilishi**	*shundan:*		**Avtomobil va temir yo‘l qurilishi**	*shundan:*	
						doimiy	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*
1	**Uchko‘pik tumani**	**689**	**237**	**452**	*460*	*150*	*310*	*84*	*30*	*54*	*88*	*35*	*53*	*57*	**22**	**35**

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-89-61-11-162-K/24-son qaroriga
6-ilova

2024-yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Hudud nomi	Jami banlik xizmatlarini ko‘rsatish	*jumladan:*						
			Kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish	*Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish*	*Ishga joylashtirish*	**Subsidiyalar ajratish***	*shundan:*		
							Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan	*Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan*	*Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan*
1	**Uchko‘pik tumani**	**3 084**	*604*	*697*	*1 563*	**220**	*25*	*15*	*180*

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-89-61-11-162-K/24-son qaroriga
7-ilova

Yangi moliyaviy xizmat turlarini joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024-yilda 10330 nafar aholini biznesga jalb qilishning MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Mas’ul bank	Hudud nomi	Jami	*shundan,*			
				O‘zini o‘zi band qilish hisobiga	Yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga	Yangi korxonalar hisobiga	Dehqon xo‘jaliklari hisobiga
1	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB	**Uchko‘pik tumani**	*10 330*	*4 130*	*500*	*500*	*5 200*

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-89-61-11-162-K/24-son qaroriga
8-ilova

2024-yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Hudud nomi	Jami	*shundan,*		
			Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi	**Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi**	**Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi**
1	**Uchko‘pik tumani**	1 864	1 287,3	337	239